


QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida)








Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **73,7** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **26,2 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



281

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

4 386

Ishlab chiqarish sanoati

32

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

61

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 4 760 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,2 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 27,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,1 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 10,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 10,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 27,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




7,4 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




11,2 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



38,9 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 466 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – binolar va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 2,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 66,7 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 7,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,5 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 24,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 24,8 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 9 991 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39,8 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 47,4 % ga (jami savdodagi ulushi 72,6 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 15,8 % ga (jami savdodagi ulushi 19,7 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 46,3 % ga (jami savdodagi ulushi 7,7 %) o'sishidir.




- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar

Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

724



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

18



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

14



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



127

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 644

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 771 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 42,0 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 41,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,8 %), yashash bo'yicha xizmatlar 56,8 % ga oshgan (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,2 %) o'sishidir.

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **42,0** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




42,5 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




48,4 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




75,3 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **24,5** foizga oshdi




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **31,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




39,2 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



2,5 marta ko'paygan



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



2020- y.

2021- y.



14,5 foizga oshdi




Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan

korxonalar va tashkilotlar soni
(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,0** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




9,7 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




11,1 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




30,8 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 4 436 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 678 taga yoki 2,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 088 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 406 taga yoki 2,4 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 236 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 794 taga yoki 5,0 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 17 080 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 710 taga yoki 38,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 16 542 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 541 taga yoki 37,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 879 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 852 taga yoki 1,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 244 tani tashkil etib, ulardan 237 tasi yoki 97,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 32 taga yoki 15,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 29 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	51	68	167	208	237
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3	7	23	36	49
Sanoat	36	42	96	105	111
Qurilish	1	2	9	11	11
Savdo	7	10	19	31	40
Tashish va saqlash	1	1	3	5	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	2	9	8	8
Axborot va aloqa	1	1	2	1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	1	4	5
Boshqa turlar	2	3	5	7	8

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonona	Xorijiy korxonona
Qashqadaryo viloyati	237	163	74
G'uzor	13	10	3
Dehqonobod	15	11	4
Qamashi	14	10	4
Qarshi	17	11	6
Koson	24	14	10
Kitob	20	12	8
Mirishkor	5	3	2
Muborak	9	6	3
Nishon	16	13	3
Kasbi	8	5	3
Chiroqchi	12	10	2
Shahrisabz	6	3	3
Yakkabog'	15	8	7
Qarshi sh.	56	44	12
Shahrisabz sh.	7	3	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 56 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,6 %), Koson 24 ta (10,1 %), Kitob 20 ta (8,4 %), Qarshi 17 ta (7,2 %), Nishon 16 ta (6,8 %), Yakkabog' 15 ta (6,3 %), Dehqonobod 15 ta (6,3 %) va Qamashi tumanlarida 14 ta (5,9 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (19,5 %), Chiroqchi (8,3 %), Koson (7,6 %), Qarshi (7,2 %), Kitob (7,2 %), Qamashi (7,1 %), Yakkabog' (6,9 %), Shahrisabz shahri (5,6 %), Shahrisabz (5,2 %), G'uzor (5,0 %), Dehqonobod (4,8 %), Kasbi (4,4 %), Nishon (4,3 %), Mirishkor (3,6 %), va Muborak (3,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Qarshi shahrida (15,9 %), Qamashi (9,1 %), Kitob (8,6 %), Chiroqchi (8,0 %), Yakkabog' (7,8 %), Koson (6,8 %), Qarshi (6,0 %), G'uzor (5,8 %), Shahrisabz (5,7 %), Kasbi (5,2 %), Shahrisabz shahri (4,8 %), Dehqonobod (4,7 %), Nishon (4,6 %), Mirishkor (3,9 %) va Muborak tumani (3,1 %) ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Qarshi shahrida (23,7 %), Koson (10,6 %), Qamashi (8,9 %), Chiroqchi (7,7 %), Yakkabog' (7,1 %), Qarshi (6,2 %), Kasbi (5,0 %), Kitob (4,8 %), Mirishkor (4,6 %), Nishon (4,4 %), Muborak (4,2 %), G'uzor (4,0 %), Shahrisabz shahri (3,9 %), Shahrisabz (3,1 %) va Dehqonobod tumani (1,8 %) hissalariga tegishli.


Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017- 2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2021- yilning yanvar- avgust oylarida, birlikda)




2021- yilning yanvar-avgust oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Shahrisabz (13,4 %), G'uzor (13,3%), Chiroqchi (12,4 %), Qarshi shahri (11,5 %), Qarshi tumani (11,4 %), Kitob (10,6 %), Koson (5,4 %), Dehqonobod (5,2 %), Mirishkor (5,1 %), Muborak (2,6 %), Yakkabog' (2,5 %), Shahrisabz shahri (2,5 %), Qamashi (2,0 %), Nishon (1,4 %), Kasbi tumanida (0,7 %), ulushlarini qayd etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar- avgust oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(75) 221-17-93